

## **SA'DULLA HAKIM BADIY PUBLITSISTIKASI: AN'ANAVIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK**

**Elmurod Jumaboyevich NASRULLAYEV**

Dotsent

filologiya fanlari doktori

Guliston davlat pedagogika instituti

Guliston, O'zbekiston

**Sherali Uktamjon o'g'li BOYBUTAYEV**

mustaqil izlanuvchi

Guliston davlat pedagogika instituti

Guliston, O'zbekiston

### **Annotatsiya**

Maqolada o'zbek shoiri Sa'dulla Hakimning badiiy publitsistikasi an'anaviylik va o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Badiiy publitsistika janrining nazariy asoslari, uning lirika va ijtimoiy maqola bilan aloqadorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, shoir she'rlari va maqolalarida ko'zga tashlanadigan obrazlilik, badiiy til, obrazlilik va samimiyat xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** Sa'dulla Hakim, badiiy publitsistika, an'anaviylik, o'ziga xoslik, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, janr, publitsistik lirika, badiiy til.

## **ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ПУБЛИЦИСТИКА САДУЛЛЫ ХАКИМА: ТРАДИЦИИ И САМОБЫТНОСТЬ**

**Элмурод Жумабоевич НАСРУЛЛАЕВ**

Доцент

доктор филологических наук

Гулистанский государственный педагогический институт

Гулистан, Узбекистан

**Шерали Уктамжон угли БОЙБУТАЕВ**

независимый исследователь

Гулистанский государственный педагогический институт

Гулистан, Узбекистан

### **Аннотация**

В статье анализируется художественная публицистика узбекского поэта Садуллы Хакима с точки зрения традиций и самобытности. Рассматриваются теоретические основы жанра художественной публицистики, его связь с лирикой и социальной статьёй. Также анализируются такие особенности стихов и статей поэта, как образность, художественный язык и искренность.

**Ключевые слова:** Садулла Хаким, художественная публицистика, традиционность, самобытность, патриотизм, национальные ценности, жанр, публицистическая лирика, художественный язык.

Jahon adabiyoti tarixiga nazar solsak, ko'plab mashhur adiblar o'zlari yaratgan betakror so'z san'ati namunalari bilan bir qatorda, jo'shqin ijtimoiy

faoliyati va yetuk publitsistik asarlari bilan ham insoniyat tafakkuri va ma'naviyati rivojiga yetarlicha hissa qo'shganlar. XX asr o'zbek adabiyotining ta'mal toshini qo'ygan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla.Qodiriy, Cho'lponlarni yoxud adabiyotimizning to'ng'ich avlodi namoyandalari – G'afur G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Shuhrat va Sh.Rashidov kabi adiblarimiz ijodini ko'z oldimizga keltiraylik. Ular, avvalo, iste'dodi va davr talabi bilan so'z san'atining deyarli barcha janr va shaklida sermahsul ijod qilishgan. Ayni vaqtda, badiiy publitsistika sohasida, ya'ni maqolanavislikda ham samarali qalam tebratganlar.

Sa'dulla Hakim ana shu ulug' adiblarimizning qutlug' an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirib, ham she'riyatda, ham badiiy publitsistika sohasida samarali ijod qilib, katta shuhrat qozonganligi ijod ahliga ma'lum. Shoirning badiiy publitsistikasini an'anaviylik va o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz.

Ushbu tadqiqotda "Publitsistika" nima, "ijtimoiy publitsistik lirika" va "publitsistik asar" kabi tushunchalarga ham to'xtalib o'tish zarur. Hozirga qadar yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, uzoq yillar davomida foydalanib kelinayotgan "Adabiyotshunoslik terminlari" lug'atlarida ham badiiy publitsistika yoki publitsistik asarning boshqa adabiy tur va janrlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanishi haqida yetarli ma'lumot berilmagan. Masalan, yirik adabiyotshunos-olimlarimiz tomonidan tayyorlangan va O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti tomonidan chop etilgan ikki jildli "Adabiyot nazariyasi" kitobida ham publitsistika to'g'risida alohida ta'rif yoki ma'lumot keltirilmagan.

Rus adabiyotshunosi M.S.Cherepaxov publitsistikada janrlar masalasi ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida ekanligini, bu borada yagona, qat'iy mezon yo'qligini qayd etadi [1; 212]. Shu sababli olim publitsistik janrlarning muhim xususiyatlarini qat'iy mezon sifatida ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtayi nazardan badiiy-publitsistik janrlar olimlar tomonidan turlicha tasnif qilinadi. R.Muhammadiyev “Publitsistika janrlari” kitobida o‘zbek gazeta va jurnallari asosida publitsistik janrlarga qisqacha ta’rif berib, ularning bir-biridan farqlarini sharhlaydi [2;124]. O‘zbek badiiy publitsistikasining asosiy xususiyatlarini o‘rgangan M.Husayinov publitsistikani ilmiy-nazariy adabiyotlardagi qarashlar asosida uch turga, ya’ni ilmiy publitsistika, siyosiy publitsistika, badiiy publitsistikaga bo‘lib o‘rganadi [2;124]. Badiiy-publitsistik janrlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Ochil Tog‘ayev esa janr xususiyatlariga ko‘ra publitsistikani voqeiy-informatsion (*xabar, reportaj, hisobot, korrespondensiya*), analitik (*maqola*), va badiiy-publitsistik (*ocherk, feleton, pamflet*) turlarga ajratadi [3;5].

Biz yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda, badiiy-publitsistik janrlar qatoriga ocherk, felyeton, pamfletdan tashqari esseni hamda adabiy suhbat, adabiy o‘ylarni kiritish maqsadga muvofiqligini aytmqchimiz. Chunki esse, adabiy suhbat, adabiy o‘ylarda badiiy, ilmiy, publitsistik mushohada yetakchilik qilishini, badiiy publitsistika janrlari singari unda sinkretizm hodisasi kuchli namoyon bo‘ladi.

Sa’dulla Hakimning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo‘lgan publitsistik asarlari uning she’r va dostonlari singari katta ijtimoiy dard va ijodiy ilhom bilan yaratilgan bo‘lib, ular xalqqa, jamiyatga xizmat qilishdek olijanob maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan. Ona Vatanimizga va xalqimizga bo‘lgan fidoyilik va jonkuyarlik Sa’dulla Hakimning deyarli barcha she’rlari hamda publitsistik maqolalari, nutq, suhbatlarining ham asosiy g‘oyaviy mazmun yo‘nalishi edi. Eng muhimi – ularda yuksak ma’naviyatli xalqimiz zakovati, yorug‘ kelajakka umid-ishonchi ham aks etib turadi. Sa’dulla Hakim mustaqillikka erishish arafasida xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, haq-huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g‘oyat og‘ir salbiy oqibatlarini haqida ham o‘zining iztirobli o‘y-fikrlarini alam va azob bilan yozganligi adabiyotimiz hamda tariximizning unutilmas dardchil sahifalari bo‘lib qoldi.

Publitsistikaning muhim jihatlaridan biri uning hujjatlilikidir. “Publitsistik ijod deganda, odatda, voqelikni hujjatlar asosida qayta tiklash anglashiladi. Publitsistikaning har qanday ko‘rinishida, publitsistik organizmning har bir hujayrasida ana shu omilning ta’siri sezilib turadi” [4;6]. Sa’dulla Hakim badiiy publitsistikasi uning ilodida bu xususiyatiga ko‘ra chinakam vaianparvar shoir sifatida o‘ziga xos hozirjavoblik, chuqur hamdardlik, qayg‘udoshlik yetakchi o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin. Ijodkor badiiy publitsistik fikrlarining qanchalik to‘g‘ri hamda asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar shuningdek, so‘nggi yillardagi xalqimiz hayotidagi tub burilishlar ham to‘la tasdiqladi. Ya’ni Sa’dulla Hakim sobiq sho‘ro davrida yashagan xalqimizning komfirqa siyosatiga mutelarcha qaramligi va natijada erta-yu kech chang dalalarda zaharli ximikatlarni yutib, sog‘lig‘ini yo‘qotib kelgan paxtakor-u, dehqonlarimizning qullarcha qashshoq turmushini real, haqqoniy yoritadi. Bu O‘zbekistonimizning har bir fuqarosi uchun yaqin o‘tmish tariximizni anglab olishi hamda bugun erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarimizning miqyosi, ulkan ahamiyatini tasavvur etishida zarur hayotiy saboqdir.

Sa’dulla Hakim yaratgan publitsistik asarlarini ikki katta guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shoirning bir turkum maqolalari, suhbat va xotiralarida jamiyatimiz va xalqimiz hayotidagi muhim hamda dolzarb ijtimoiy muammolarni yoritish ustuvorlik qiladi. Boshqa bir turkum maqolalari va jurnalistlar, muxbir va taniqli adabiyotshunoslar bilan bo‘lgan adabiy suhbatlari esa bevosita adabiyot, badiiy ijod, ma’naviyat va adabiy til masalalariga bag‘ishlanganligi adabiy o‘ylari bilan ajralib turadi. Lekin yuqorida aytganimizdek, shoirning butun ijodini yaxlit ravishda organish jarayonida publitsistik asarlarini mavzu-muammolariga ko‘ra shartli ravishda ikki guruhga ajratib o‘rgansa ham bo‘ladi .

Sa’dulla Hakimning “Mansublik” she’rida Vatanga bo‘lgan cheksiz sadoqat va insonning o‘z ildizlariga bog‘liqligi haqidagi teran falsafiylik ifoda etiladi. She’r

boshidan oxirigacha bitta kuchli g'oya ustiga qurilgan: inson qayerdan yaralgan bo'lsa, o'sha maskanni tark etolmaydi, undan uzila olmaydi.

*Banogoh cho'qqidan*

*qulasa bir tosh*

*Tog' poyiga tushar, tog'ni tark etmas.*

*Et bilan tirnoqdek*

*bir jonu bir tan,*

*Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.*

Shoir ushbu she'rida juda keng falsafiy qarashlarni ilgari suradi va ko'plab misollar vositasida fikrlarini juda go'zal tarzda ifodalaydi. U she'rda tog'dan qulagan tosh misolini keltiradi – u baribir tog' etagiga tushadi, tog'ni tark etmaydi. Bu obraz orqali inson ham Vatandan ajralmasligini ta'kidlaydi. “Et bilan tirnoqdek bir jon-u bir tan” degan misra esa Vatan va inson o'rtasidagi uzviy, ajralmas rishtani juda ta'sirli ifodalaydi.

Bulutlar qancha baland parvoz qilmasin, oxir-oqibat yana yerga qaytadi. Bu misralarda shoir insonning ham qanchalik uzoqlarga ketmasin, qalbi baribir Vatanga intilishini ko'rsatadi. She'rda milliy qadriyatlar – Shashmaqom, ajdodlar, avlodlar, shahidlar xotirasi tilga olinib, Vatan nafaqat yer, balki tarix, madaniyat va muqaddas xotira ekanligi yuksak ruhda tasvirlanadi.

Ayniqsa, “Vatandan yaralgan Vatandan ketmas” degan takroriy satr she'rning asosiy g'oyasini mustahkamlaydi. Bu satr shoir darajasiga ko'tarilgan fikr bo'lib, o'quvchining qalbida faxr va sadoqat tuyg'usini uyg'otadi.

Umuman olganda, “Mansublik” – bu insonning kimligi, kelib chiqishi va Vatan bilan bog'liqligini ulug'lovchi, milliy g'urur va muhabbat ruhida yozilgan chuqur ma'noli she'rdir.

“Tavallo” she'ri – shoirning samimiy e'tirofi, o'z qalbi bilan suhbat, ichki dard va armonlarini ochiq tasvirlagan lirika namunasidir. Unda Sa'dulla Hakim inson ruhiyatining nozik qatlamlarini, hayot ma'nosini izlash jarayonidagi iztirob va umidni ta'sirchan tarzda yoritadi.

*Hayotdan murod ne, qotdi bu boshim,*

*Bildimu, yoronlar, bila olmadim.  
Kuldimu – ko ‘zimdan tirqirab yoshim,  
Osmondak hayqirib – kula olmadim.*

Umuman, “Tavallo” – bu insonning o‘z qalbi bilan suhbatidir. Unda hayot mazmunini anglashga urinish, armon, ichki iztirob va samimiy kechinmalar chuqur badiiy obrazlar orqali ifodalangan. She‘r o‘quvchini o‘ylashga, o‘z hayoti va maqsadlari haqida mushohada qilishga undaydi.

Ustoz olim Ozod Sharafiddinov mashhur adiblar va allomalarning nutqlari va ularning o‘tmishda ham, hozirgi davrda ham juda katta ijtimoiy-estetik salmoqqa ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Jumladan, A.Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, A.Qahhor, M. Shayxzoda, Shuhrat, E.Vohidov va A.Oripovlarning teran mazmunli nutqlari xalqimiz ma’naviy hayotida unutilmas iz qoldirgan.

Sa’dulla Hakimning badiiy publisistikasi, ya’ni bugungi hayotimiz, ma’naviyatimizning ko‘plab dolzarb muammolari hamda ijod masalalariga bag‘ishlangan salmoqli maqolalari, da’vatkor nutq-suhbatlari va ularning ta’sirchan g‘oyaviy-estetik mazmuni chuqur o‘rganishga munosibdir. Shoir she’riyati va publitsistik asarlarida yetakchi motiv bo‘lgan bu markaziy g‘oya uning butun ijodi va adabiy-estetik qarashlarining mustahkam zamini va tayanch ustunlardan biri deyilsa, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sa’dulla Hakim publitsistikasida ulug‘langan tarixiy o‘tmishimiz va bebaho milliy qadriyatlarimiz, adabiyot hamda san’atimizni chuqur o‘rganish ulardagi yorqin jihatlar shuningdek saboqlarni yoshlarimiz tarbiyasiga yo‘naltirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib sanaladi.

Sa’dulla Hakimning “Hamal tonglari” va “Sen kutgan bahor” to‘plamlari adabiyotimiz va she’riyatimizda yangi sahifa ochdi. Shoirning barcha she’rlari, doston va qasidalariga xos asosiy va mushtarak xususiyatlar shundaki, uning butun ijodida insonparvarlik hamisha bosh mavzu bo‘lib kelgan. Bunday umuminsoniy g‘oya va milliy qadriyatlar shoirning barcha janrdagi asarlarida, xususan

publitsistik maqolalarida ham ustuvorligi ularning beqiyos ijtimoiy-ma'naviy, badiiy-estetik ahamiyatini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Sa'dulla Hakim badiiy publitsistikasi o'zbek adabiyotida an'anaviy publitsistikaning eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muammolarini o'ziga xos badiiy til va ulkan ijodiy mahorat bilan yoritgan noyob hodisadir.

Sa'dulla Hakimning tarixiy siymolarga bag'ishlangan she'rlari va publitsistik maqolalari adabiyotimiz rivojida muhim o'rin egallashi bilan bir qatorda, davr va adabiy jarayonning yetakchi tendensiyalarini aks ettiruvchi ahamiyati bilan ham qadrlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Черепанов М.С. Проблемы теории публицистики. – Москва: Мысль, 1973.
2. Муҳаммадиев Р. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965. –
3. Тоғаев О. Адиблар ва жанрлар. – Тошкент: Фафур Гулом, 1976.
4. Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та., 1975.
5. Mardanov, R. G. Shoir lirik she'riyatida xabar mavzusidagi g'azal va baytlar mazmuni haqida // *Iqtisodiyot va jamiyat*, 2024. – №12-1 (127)), 225-229.
6. Rahim, M. Xabarchi qahramonlari va she'riy mahoratga murojaat // *Yevropa xalqaro filologik fanlar jurnali Ta'sisshilar: Yevropa Xalqaro Ko'p Fanli Tadqiqotlar va Menejment Tadqiqotlari Jurnal*, 2025. – №5 (3). – Б.12-16.